

**O'RTACHA SHO'RLANGAN OCH TUSLI BO'Z TUPROQLAR
SHAROITIDA OZIQLANTIRISHNI RIVOJLANISH DAVRLARIGA
TA'SIRI**

Ilmiy rahbar: q.x.f.d., professor Jo'rayev D.T.¹

Magistrant: Sanayev S.Q.²

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti¹

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti²*

***Annotatsiya.** Respublikamizda 4,3 mln gektar sug'oriladigan maydonlarning 44-46 % turli darajada sho'rlangan. O'zbekiston Respblikasi Prezidentining 2021 yil 24 avgustdagi PF-5853-sonli “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi farmonida belgilanganidek qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv texnologiyalarni, eng avvalo, suv va resurs tejaydigan zamonoviy agrotexnologiyalarni qo'llash muhim vazifalardan hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** kuzgi bug'doy, janubiy mintaqa, oziqlantirish, sho'rlangan yerlar, tadqiqot, iqlim sharoitlar*

***Аннотация.** В нашей республике из 4,3 млн га орошаемых площадей 44-46% засолены в разной степени. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 24 августа 2021 года № ПФ-5853 “Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы” одной из важнейших задач является внедрение в сферу сельскохозяйственного производства интенсивных технологий, прежде всего современных водо-и ресурсосберегающих агротехнологий.*

***Ключевые слова:** озимая пшеница, южный регион, питание, засоленные земли, исследования, климатические условия*

Kirish: O'simlikning tuplanish, naychalash, boshqoqlash davrlaridagi namlik yoki oziqa elementlari yetishmasligi boshqodagi boshqochalar va don sonining kamayishiga olib keladi. O'simliklar azotni nitrat yoki ammoniy shaklida o'zlashtirib, nitratlar ammoniyli shaklga o'tadi va uglevodlar, boshqa bir qator moddalar bilan o'simlikning yashil bargida birikishi natijasida aminokislotalarga aylanadi. O'simlik azolarining bajarilgan vazifasiga qarab undagi N turlicha miqdorda bo'ladi va o'zaro farqlanadi.


Tadqiqotning maqsadi global iqlim o'zgarish sharoitida kuzgi bug'doyni ekib parvarishlashda o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda madan o'g'itlar bilan oziqlantirish samaradorligini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dala tajribalarini jo'ylashtirish va barcha o'lchav, kuzatuv va xisoblashlar dala tajribalarini o'tkazish uslublari, tuproq va o'simlik tarkibidagi oziqa-moddalar miqdorini aniqlash bo'yicha tahlil qilingan.

Ma'lumotlarga ko'ra kaliy o'g'iti o'simlik organlarida bo'lsa bir muncha ustunlikka ega bo'ladi. O'simlik rivojlanishida kaliy bargda, ko'payish organida, xujayra shirasida va plazmada ko'p bo'ladi. Kaliy qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi va uglevodlar hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Kaliy asosan ekinlar tarkibida suvda eriydigan shaklda bo'ladi. Qishloq xo'jalik ekinlarini kaliy bilan yaxshi taminlanishi ekinlarning kasalliklarga, sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamliligi oshadi. Kaliy o'g'iti ekinlar urug' hosil bo'lishi, pishishi yaxshilab, azotdan foydalanishga imkon beradi, ekinlarning yon ildizlari hosil bo'lishiga qulaylik tug'diradi.

Ўсимликларнинг бошоқлашдан тўлиқ пишишигача бўлган давр хаво ҳароратига боғлиқ ҳолда ўзгариб туради. Лекин бошоқлаш давригача бўлган давр навларнинг эртапишарлик даражасини белгилаб беради. Таҳлил натижаларига кўра Shukrona navida бошоқлашгача бўлган давр 169 кунни ташкил қилган бўлса, Shams navida 171-172 кунни ташкил қилган ҳолда эртапишар бошоқлагани аниқланди(1-расм).

1-расм: Юмшоқ буғдой нав ва тизмаларининг униб чиқиш-



бошоқлашгача бўлган давр, кун (Қарши-2023-2024 йй.).

Тадқиқотлар натижасида навларнинг уруғ униб чиқишидан тўлиқ пишиб етилгунга қадар усув даври 209 кундан 220 кунгачани ташкил қилди. Тўлиқ пишиб етилиши Shams navida 210 кун, Shukrona navida 217-кунни ташкил қилди(-жадвалга қаранг).


-жадвал

Юмшоқ буғдой нав ва тизмаларининг ривожланиш босқичларидаги фенологик кузатув жараёнлари (Қарши-2021-2023 йй.).

Нав номи	Униб чиқиш,	Туплаш, сана	Найчал аш, сана	Бошоқл аш, сана	Бошоқл ашгача	Тўлиқ пишиш,	В егетаци я даври,
Shams	19 окт	21 ноя	10 фев	9 апр	172	23 май	210
Shukrona	20 окт	22 ноя	9 фев	10 апр	172	25 май	217
Энг баланд кўрсаткич	22 окт	23 ноя	15 фев	15 апр	177	27 май	217
Ўртача кўрсаткич	19 окт	22 ноя	10 фев	11 апр	174	23 май	214
Энг паст кўрсаткич	18 окт	21 ноя	5 фев	7 апр	169	19 май	210

ЭКФ 0,05	1,77	1,78
ЭКФ 0,05 (%)	1,462	1,17
CV (%)	0,9	0,7

Мамлакатимизнинг жанубий ҳудудлари эртапишар ва ўртапишар



буғдой навларини етиштиришда мўътадил иқлим ҳисобланади. Республикамиз иқлим шароитида эртапишар ҳамда ўртапишар навлардан тўлишган донлар шаклланиши яхши кечади, кечпишар навларда эса, дон шаклланиш давридаги юқори ҳарорат таъсирида доннинг етилиши муддатидан олдин бўлиши ҳамда юқори ҳаво ҳарорати таъсирида дон пуч бўлиб қолиши, шунга кўра ҳосилнинг ҳам камайиши кузатилади.

2-расм: Юмшоқ буғдой нав ва тизмаларининг ўсув даври, кун (Қарши-2023-2024 йй.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abduraxmonov. S.O. Suv tanqis xudud doni. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, Toshkent 2009, №4 son B 15.
2. Abduraxmonov S.O. Abdullayev I., Atabayeva M., Xotamova N. Maqbul ekish muddati don hosili garovi. //Agro ilm O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali ilmiy ilovasi, Toshkent. 2015 N5 (37). B 32.

3. Abduraxmonov.S.O. Abdullayev I.I. Noanaviy o'g'it – ham don, ham somon. //Agro ilm. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali ilmiy ilovasi, Toshkent, 2018. N1 (51) B. 20-21.
4. Abduraxmonov.S.O. Abdullayev.I.I. Bentolet miqdori –sug'orish meyyori //Ekologiya xabarnomasi jurnali, Toshkent, 2018, N1 27-29-betlar.
5. Abduraxmonov.S.O. Abdullayev.I.I. Kuzgi bug'doyning sug'orish meyyoriga bentolit loyqasining tasiri. //Irrigatsiya va melioratsiya jurnali, Toshkent, 2018 N1 (11). B 31-35.